

gacha bo'lgan sonlar o'zlariga o'xshash so'zlar yordamida gaplarga aylantirilib, eslab qolinadi. Bu yerda ohangdoshlik muhim rol o'ynaganligi sababli, pona so'zlar usuli ko'pincha kalit so'zlar usuli bilan birgalikda ishlatiladi. Ingliz tilida pona so'zlar usuliga quyidagi misolni keltirish mumkin: *one – bun; two – shoe; three – tree; four – door* va boshqalar.

Xulosa

Insonning shaxsiy va kasbiy ravnaqi nafaqat uning aqliy va kasbiy qobiliyatlariga, balki nutqiy va lisoniy iqtidoriga ham bog'liqdir. Til o'rganish, nutqni rivojlantirish tasavvur va xotiraga

chambarchas bog'liq ekan, bugungi kundagi til o'rgatish sohasi oldida turgan zaruriy vazifalardan biri o'rganuvchilarga aynan shu yo'nalishda yordam berishdir. Modomiki shunday ekan, umuman xotirani rivojlantirish, xususan, til o'rganish jarayonini sezilarli osonlashtirish usullaridan biri bo'lmish mnemonikadan foydalanish ham samarali, ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mazkur yo'nalishdagi izlanish va tajribalarni izchil amalga oshirish, ularning natijalarini amalga tatbiq etish tavsiya etiladi.

¹Черная В.В. Использование мнемотехники в процессе развития памяти у детей дошкольного возраста. 2015. – С. 1–6; Abdullaeva A.Z. The main objective of educational policy – ensuring modern education quality. – Вестник науки и образования, 2019. – С. 26–28.

²Putnam A.L. Mnemonics in education: current research and applications. Translational issues and psychological science, 2015. – pp. 130–139.

³Sattibayev I. So'z yodlash sirlari. – Istiqloq Nuri, 2015.

⁴Nazri M. A case study on the effects of mnemonics on English vocabulary. International journal of applied linguistics and English literature, 2016. – pp. 357–377.

⁵Bakken J.P. Mnemonic strategies: success for the young-adult learner. Journal of human resources and adult learning, 2011. – pp. 79–85.

Sanobar KULDASHEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Zamonaviy o'qituvchi axborot asrida tug'ilib, kommunikatsiya vositalari orqali dunyoni taniyotgan avlod qarshisida AKT hamda Internet tarmoqlari imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan, muntazam ravishda o'z ustida ishlab, o'z o'quvchisida media madaniyatni shakllantira oladigan pedagog sifatida gavdalanishi lozim. Ta'limda axborot texnologiyalari bir qator didaktik imkoniyatlari bilan birga o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanishi tan olindi. O'quv jarayoniga tatbiq etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat ushbu sohada bilim va ko'nikmalarning shakllanishiga, balki o'quvchi dunyoqarashining kengayishi, shaxsiy fazilatlarining takomillashuviga ham ta'sir ko'rsatadi, bilim olish jarayonining o'ziga nisbatan qiziqishni oshirish, o'rganishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra AKT o'quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, musiqa, video va turli xil usullarning kombinatsiyasidan dars mashg'ulotlarida unumli va o'rinni foydalanib dars mazmuni va shaklini ta'minlash o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: ma'lumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallarni birlashtirib anglash, ko'rib idrok qilish mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi. O'qituvchi, olim va dasturchining integrativ yondashuvi yangi ta'lim muhitini yaratadi va sifatning oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia shaklidagi o'quv materiallarining taqdimoti o'qish vaqtini qisqartiradi. Yangi innovatsion axborot muhitida o'quvchilar o'quv jarayonida faol qatnashadilar, mustaqil fikrlashni o'rganadilar, o'z nuqtayi nazarlarini ilgari suradilar, real vaziyatlarni tahlil qiladilar. Fikrlashning quyi bosqichlari (o'qing, tushunganingizni gapirib bering, ko'chirib oling kabi)dan fikrlashning yuqori bosqichlari (analiz, sintez qilish, kreativ fikrlash)ga chiqish multimedia vositalari orqali qulayroq amalga oshiriladi.

Ta'lim va dars mashg'ulotining har qanday bosqichida multimedia imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Undan

darsning barcha bosqichlarida qo'llana olish imkoniyati esa bu texnologiyaning deyarli universalligini ko'rsatadi. Ana shu universallik o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham qo'shimcha qulayliklarni keltirib chiqaradi. Unda tavsiya etilayotgan manba va materiallarning rang-barangligini ko'p jihatdan ko'rish va kuza-tish mumkin bo'ladi. Oddiy matn yonidagi turli jadvallar, sxemalar, diagramma va animatsiyali materiallarning namoyon bo'lishi mashg'ulot mazmunini boyitibgina qolmay, ularning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishini osonlashtirishi, "hazm jarayonlari"ni qulaylashtirishi undagi afzalliklarni ko'rsatadi. Shuningdek, matnni takror va takror ko'ra olish, ta'kidlanishi lozim bo'lgan o'rinlarni maxsus belgilay olish, ularga animatsiya elementlarini ko'plab kiritish mumkinligi kabi qo'shimcha imkoniyatlar bu shaklga imtiyoz ham beradi.

Ko'rish, eshitish, bajarib ko'rishni parallel holda bir vaqtning o'zida amalga oshirish esa o'quvchilarning muhokama qilishi, xulosa chiqarishi uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan omilga aylanadi. Mana shu jarayonlarni nisbatan qisqa muddatda bajarish o'quvchining ijodiy fikrlashi, mushohadasi, eng muhimi, o'ziga bo'lgan ishonchi kuchayishiga olib keladi.

Albatta, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanadigan har bir shakl, vosita, metod va usullarning qo'llanish xususiyatlari mavjud. Ayniqsa, pedagogik me'yor va mezonlarga rioya etish bu yerda ham o'z kuchini to'la saqlab qoladi. Bu siraga multimedia vositalaridan darsning qaysi qismida, qancha miqdor va muddatda foydalanish ham oldindan puxta rejalashtirilishi joiz bo'ladi. Ularga rioya etmaslik o'quvchida zerikish, tushunmay qolish, paydo bo'lgan savollarni esidan chiqarib qo'yish holatlariga olib kelishi mumkin. O'qituvchi video qo'yilgan dars jarayonida boshqa narsaga chalg'imasligi, o'quvchi bilan bab-baravar unda ishtirok etishi lozim, aks holda o'quvchida norozilik kayfiyati paydo bo'ladi. Masofaviy videodarslarda ham bir xil ma'ruza turidan voz kechib, turli yangi faoliyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ona tili fanidan tayyorlangan videodarslar "va'xzonliklar"-u qoidalar takroridan iborat bo'lmay, balki ko'proq misol va tahlillar, bilim oluvchini fikrlashga chorlaydigan topshiriqlar asosida bo'lishi dardkor. Videodarslarni kuzatish jarayonida paydo bo'lgan savollarni yozib borish muhimligini o'quvchiga eslatib qo'yish kerak bo'ladi. Dars mashg'ulotining turli bosqichlarida videodarslardan unumli va o'rinni foydalana olish joiz. Dars samaradorligining o'qituvchi shaxsi, uning umumiy tajriba va pedagogik mahoratiga bog'liqligi ushbu tip mashg'ulotlarda ham ustuvorlik kasb etaveradi. Oddiy dars jarayonida o'quvchi o'qituvchining nutqini buzib, darsning o'rtasida biror savol berishi nojoiz hisoblanadi. Ammo videodarslarda o'quvchi o'zi uchun biror tushunarsiz, mujmal yoki qiyin ko'ringan adabiy hodisaga duch kelgan paytning o'zidayoq uni qayd qilib qo'yishi, videorolik tugaganidan keyin o'sha sahifa – lavhalarini qayta ko'rishi mumkin bo'ladi. Bunday fakt, hodisa va holatlar videomateriallarni yangi fakt va g'oyalar bilan boyitish, savol va topshiriqlarga o'zgartirish kiritish, o'quvchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirishini inobatga olib vazifalar ko'lamini belgilash (kengaytirish va ixchamlashtirish) imkoniyatini ham beradi.

Yaqinda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'zbek tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish va ommalashtirishga qaratilgan "O'zbek tili bo'yicha eng yaxshi videodars" uslubiy-ijodiy ishlar tanlovining tashkil etilishi va o'tkazilishi ayni muddao bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmas. Internet tarmoqlaridan videodarslarni kuzatar ekanmiz, o'qituvchilar faoliyatidagi yangicha g'oya va yondashuvlarning guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, ona tili mavzularini tushuntirishda adabiyot fani bilan integratsiyalash, yosh saviysiga e'tibor qaratish, mashq va topshiriqlardagi parchalarni muallif nutqidan keltirish kabi bir qator omillarni sanab o'tish joizki, bunday izlanishlar barcha mutaxassislar uchun o'rnatilgan bo'ladi. Ammo ko'pgina videodarslardagi bir xillik, faqat telefon imkoniyatlari bilan cheklanib suratga olish va buning natijasida sifatga putur yetishi, texnik talablarga e'tibor bermaslik (ranglarning tanlanishi, tasvirdagi xiralik, imlo xatolarining uchrashi, ovoz tonlari va nutq) holatlari ham mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, ko'pgina mutaxassislarimiz videodars yaratish deganda, faqatgina slaydlarni ekranga chiqarib uni tushuntirib berish hamda telefonda suratga olishni tushunishadi. Bizningcha, bunday oddiy qarash – bugungi kun o'quvchisi uchun "tez me'daga tegadigan", jo'n yondashuv. Vaholanki, videodars yaratish maxsus talablar va dasturlar orqali amalga oshirilishi lozim.

B.Suropov videodars yaratish uchun quyidagi talablarni sanab o'tadi:

- didaktik;
- metodik;
- psixologik;
- texnik;
- estetik;
- ergonomik va boshqa maxsus talablar. [5: 78]

Videodars tayyorlashda didaktik jihatdan, ilmiy, tushunarli, uzluksizlik va yaxlitlik ta'minlangan, mavzu tizimli yoritilgan, mu-loqotning interfaolligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning yaxlit birligi inobatga olinib, boshqa talablar (metodik, psixologik, texnik...) bilan mutanosiblashtirilganda, talab va ijro uyg'unligida ijobiy natijaga erishiladi. Mazkur talablar asosidagi innovatsion yondashuv o'quvchilarda yangi tajriba orttirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni anglash, kelajakka intilishni rivojlantirish bilan birga

mustaqil intellektga ega shaxsni tarbiyalash uchun samarali omil vazifasini o'taydi.

Yana bir imkoniyatli tomoni shundaki, multimediali ishlan-malardan sinfdagi dars mashg'ulotlari, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, past o'zlashtiruvchilar bilan ishlash, ona tili to'garaklari, shuningdek, uyda mustaqil ishlash uchun foydalaniladi. Faqatgina o'qituvchi o'quv materialini o'zlashtirish tezligi, material miqdori, qiyinchilik darajasini belgilash hamda, eng asosiysi, o'quvchi-da kerakli media vositalaridan o'rinni foydalana olish malakasi va madaniyatini shakllantirgan bo'lishi talab etiladi. Multimediali darslar orqali quyidagi ijobiy omillarga erishish mumkin:

- 1) o'rganilayotgan materialni namoyish etish vositalarida yaxshiroq va chuqurroq tushuntirish orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish;
- 2) muntazam operatsiyalarni avtomatlashtirish natijasida sezilarli darajada vaqtni tejash;
- 3) o'quvchini mashg'ulot jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kognitiv mustaqilligi va ijodini rivojlantirish;
- 4) obyektlar va hodisalarni modellashirish qobiliyatini shakllantirish, kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanishni o'rgatish;
- 5) ma'lumotning uzoq vaqt xotirada qolishini ta'minlash;
- 6) istagan paytda qayta takrorlashga imkoniyat yaratish;
- 7) ta'limni zamon bilan hamnafaslikda o'rganish motivatsiyasini oshirish;
- 8) axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish (izlash, tanlash, qayta ishlash, ajratib ko'rsatish, mantiqiy aloqalarni o'rnatish kabilari);
- 9) vizual-obrazli fikrlash, yozma va og'zaki muloqot qobiliyatlarini shakllantirish.

Multimediali darslarda dasturiy ta'minot vositalari o'qitishning an'anaviy texnologiyalarini to'ldiradi. Animatsiya va ovoz effekt-lari bilan jihozlangan diagrammalar, jadvallar, videoklip, audio-matnlar ko'rinishidagi ko'plab vizual tasvirlar o'quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: maqsad, mazmun, o'qitish usullari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan uzviy bog'liq holatda bo'lishi-ni ta'minlash lozim. "Shuningdek, samarali yangi pedagogik texnologiyalar va tilni o'qitish nazariyasi hamda amaliyotida doimo mavjud bo'lgan, vaqt sinovidan o'tgan lingvovodaktik konstantalar o'rtasidagi muvozanatni topish kerak" [3: 48].

Multimedia darslarining yana bir ahamiyati shundaki, dastur-dan ochiq va masofaviy darslarda birdek foydalanish mumkin. Ayniqsa, bugungi karantin davrida tashkil etiladigan masofaviy dars mashg'ulotlarida ham multimedia vositalaridan unumli foy-dalanish ijobiy natijalarga olib keladi.

Elektron ta'lim muhitida kompyuter o'qituvchi va o'quv-chi orasida muhim vosita va yordamchi vazifasini o'taydi. Endi o'qituvchi "o'qituvchi – kompyuter – shogird" uzvida ilmdagi maslahatchi, yaqin do'st, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi vazifasini bajara-di. Uning zimmasidagi "yuk" birmuncha yengillashadi, imkoniyat-lari kengayadi. Ammo mas'uliyati ortadi: o'z fani doirasida chuqur bilim va ma'lum tajribaga ega bo'lishi bilan bir qatorda raqamli ta'lim resurslaridan keng foydalana olishi va buni o'z o'quvchilar-ida ham shakllantirishi lozimligini unutmasligimiz kerak. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim muassasalari malakali mediapedagoglarni kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.
2. Жиндаева А. Моделирование лингвопрофессионального мультимедиа курса для дистанционного обучения иностранных абитуриентов-филологов. Дис. ... докт. пед. наук. – Москва, 2016.
3. Кашук С. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования: на примере обучения французскому языку. Дис. ... докт. пед. наук. – Москва, 2014.
4. Морева Н.А. Технологии профессионального образования. изд. 3. – Москва: Академия, 2008.
5. Сурупов В. Elektron ta'lim muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirish. Diss. PhD. – Toshkent, 2019.
6. Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar. Ma'ruza matni. – // motm.tma.uz/site/wp-content/.../09/3-2-1-MA'RUZA.pdf.